

# VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 174 (1500), 2025-yil 25-avgust, dushanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## IORDANIYA PODSHOHI DAVLAT TASHRIFI BILAN O‘ZBEKISTONGA KELADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan  
Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II  
ibn al-Husayn 25-26-avgust kunlari davlat tashrifi bilan  
mamlakatimizda bo‘ladi.

Oliy martabali mehmon tashrifining  
asosiy tadbirlari Samarqand shahrida  
bo‘lib o‘tadi.

Sammit kun tartibidan siyosiy, savdo-  
iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni  
rivojlantirish, kimyo, farmatsevtika,  
qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik,  
konchilik va boshqa tarmoqlarda  
kooperatsiyanı yo‘lga qo‘yish, madaniy-

gumanitar almashinuvni kengaytirish  
masalalari o‘rin olgan.

Xalqaro va mintaqaviy siyosatning  
dolzarb jihatları yuzasidan ham fikr  
almashiladi.

Muzokaralar yakunida ikki  
tomonlama bitimlar to‘plami  
imzolinishi ko‘zda tutilgan.

O‘ZA

## O‘ZBEKISTON – IORDANIYA: HAMKORLIKNING YANGI UFQLARI SARI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga  
binoan Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn  
al-Husayn 25-26-avgust kunlari davlat tashrifi bilan  
mamlakatimizda bo‘ladi.

Davomi 2-betda

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ TO‘RT YILLIGI MUNOSABATI BILAN HARBIY XIZMATCHILAR VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining jangovar  
tayyorgarligini oshirishdagi alohida xizmatlari, milliy  
manfaatlirimizni himoya qilish, qonun ustuvorligi va tinchlikni  
ta‘minlash, barqarorlik va jamoat tartibini mustahkamlash  
borasidagi sharaflı burchini bajarish chog‘ida mardlik, jasorat  
va fidoyilik ko‘rsatgani, sohada yuqori malakali kadrlarni  
tayyorlash, yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va sadoqat  
ruhida tarbiyalash yo‘lidagi ko‘p yillik samarali mehnati  
hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar  
orden va medallar bilan mukofotlansin:

### I darajali “Shon-sharaf” ordeni bilan

Qodirov G‘ayrat Toirovich — Jizzax viloyati Ichki ishlar  
boshqarmasi boshlig‘i

### “Mardlik” ordeni bilan

Qurbonov Dostonbek Zafarjon o‘g‘li — O‘zbekiston  
Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy  
xizmatchisi

Ismoilov Abduvohid Salomovich — Qashqadaryo viloyati  
Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i

Tursunov Ikromjon Normurodovich — Buxoro viloyati  
Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i

Yusupov Sanjar Abdulkarimovich — O‘zbekiston  
Respublikasi Mudofaa vazirligi boshqarmasi boshlig‘i

### “Do‘stlik” ordeni bilan

Axmedjanov Timur Fatixovich — O‘zbekiston  
Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism bo‘lim  
boshlig‘i

Gordiyenko Oksana Mixaylovna — Toshkent shahar Ichki  
ishlar bosh qarmasi Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi  
muhim topshiriqlar bo‘yicha inspektori

Tashkulov Akbar Djurabayevich — O‘zbekiston Respublikasi  
adliya vaziri

Fazilov Botir Naimovich — O‘zbekiston Respublikasi Milliy  
gvardiyasi markaziy devoni boshqarma boshlig‘i

### “Jasorat” medali bilan

Bo‘ronov Jasurbek Botir o‘g‘li — Surxondaryo viloyati  
“Ayritom” chegara bojxona posti katta inspektori

Davronov Lazizbek Raxmonovich — O‘zbekiston  
Respublikasi Mudofaa vazirligi markaz guruh komandiri-  
yo‘riqchisi

Djalilov Rasul Abduganiyevich — Toshkent viloyati  
Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Bekobod shahar favqulodda  
vaziyatlar bo‘limi katta yo‘riqchi-qutqaruvchisi

Ismaylov Jenisbay Aminbayevich — O‘zbekiston  
Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism seksiya mutaxassisi  
Mirzaxmedov Akmal Nasridinovich (marhum) —  
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh  
mutaxassisi

Ne‘matov Jasur Rustamovich — O‘zbekiston Respublikasi  
Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh komandiri

Siddikova Mohikul Maxmudovna — Farg‘ona viloyati Ichki  
ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati otryadi patrul-post xizmati  
inspektori

Yakubov Sobitjon Muminjon o‘g‘li — Andijon viloyati  
Ichki ishlar boshqarmasi o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tezkor vakili

### “Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan

Abduraxmanov Xasanboy Alisherovich — Namangan  
viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Norin tumani  
favqulodda vaziyatlar bo‘limi smena boshlig‘i

Davomi 2-betda

## O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga

# KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKlarda INSON QADR-QIMMATI

Dunyo dunyo bo‘libdiki, Yer shari sutkada bir  
marta o‘z o‘qi, katta orbitasi bo‘ylab esa Quyosh  
atrofida yilda bir marta aylanib chiqishi o‘zgarmas  
qonuniyat. Bu – isbot talab qilinmas astronomik  
haqiqat. Huquq olamida ham shunday aksiomatik  
qonuniyatlar borki, ular barcha tomonidan hech  
shubhasiz qabul qilinadi va tan olinadi.

Bunga yangi O‘zbekiston nuqtayi nazaridan qarasak, inson, huquq  
va erkinliklar, uni ro‘yobga chiqarishni milliy huquq tizimining  
yuragi, o‘qtomiriga o‘xshatish mumkin. Zamonlar osha toblangan  
ushbu g‘oya va qonuniyatlar umrboqiy mavzu — **“Inson va uning  
qadr-qimmatı uchun”** degan oliy maqsadimiz ro‘yobga xizmat  
qilmoqda. Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi va yangilangan  
Konstitutsiya hamda uning boyitilgan prinsip va normalari tahlildan  
biz shunday fikr bildirishga asoslarni anglaymiz.

Xususan, Prezidentimiz tashabbusi va xalqimiz irodasi bilan joriy  
etilayotgan milliy davlatchilik modeli, tinch-totuv yashash formulasi,  
Konstitutsiya va qonunlar mohiyati, milliy g‘oya, ma‘naviyat va  
ta‘lim-tarbiyaning negizi izchil islohotlarning bosh mazmuni —  
inson huquqlarini ta‘minlash va uning qadrini yuksaltirishda g‘oyat  
ahamiyatli.

Davomi 3-betda



## Mulohaza KAMXARJ TO‘YLAR — IJTIMOIY-IQTISODIY ZARURAT

Jamiyatda oila mustahkamligini ta‘minlash va yoshlar  
kelajagiga puxta zamin yaratish eng ustuvor vazifalardan  
biridir. Shu nuqtayi nazardan, to‘y-marosimlarni  
ixcham va kamxarj o‘tkazish masalasi ijtimoiy-iqtisodiy  
zaruratga aylanmoqda.

Ixcham va kamxarj to‘ylar inson  
hayotidagi muhim voqeani ortiqcha  
xarajatlarisiz, ammo mazmunan boy tarzda  
o‘tkazish imkonini beradi. Kamxarjlik faqat  
pulni tejash emas, balki to‘yga mazmun  
baxshida etish, ortiqcha dabdabadan voz  
kechishdir. Katta xarajatlar ba‘zan to‘yning  
asl mohiyatini yo‘qotadi. Ixcham to‘y esa  
samimiy muhit yaratib, har bir mehmonga  
alohida e‘tibor qaratishga yordam beradi.  
Bunday to‘ylarda mehr-muhabbat, samimiyat  
va hurmat ustuvor bo‘lib, ular tenglik va  
bag‘rikenglikka xizmat qiladi. Shuningdek,  
bu yosh oilalar uchun tejamkorlikka yo‘l

ochib, kelajak uchun mablag‘ni asrab  
qolishga sharoit yaratadi.

Yoshlar uchun ham kamxarj to‘y ayni  
muddao: ular qarzdan saqlanadi, kelajakka  
oson yo‘l ochiladi. Bunday yondashuv  
nafakat shaxsiy hayot, balki tabiat va jamiyat  
uchun ham foydali. Ya‘ni isrof kamayadi,  
moddiy boyliklar tejraladi, tozalik saqlanadi.  
Kamxarjlik vaqtinchalik yechim emas, balki  
doimiy hayot tarziga aylanishi kerak. Bu  
orqali jamiyat yanada barqaror, adolatli va  
ma‘naviyatli bo‘ladi.

Davomi 6-betda

## Ilmiy-tadqiqot muassasalarida

# HAYOT HAQIDAGI FAN

## YOKI DUNYO SIVILIZATSIYASIDA BIOLOGIYANING O‘RNI

Bugun biz yashab turgan dunyo juda tez  
rivojlanmoqda. Deyarli har kuni turli sohalarda  
ilmiy yangiliklar sodir bo‘lib turibdi, hayotimizga  
eng yangi texnologiyalar shiddat bilan kirib  
kelyapti.

Ilm-fandagi o‘zgarishlar jamiyat va inson hayotiga,  
taraqqiyotga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi, albatta. Shu  
bilan birga, fan oldida yechimini kutayotgan muammolar yo‘q  
emas. O‘zFA Mikrobiologiya instituti bosh ilmiy xodimi,  
akademik Qahramon DAVRONOV bilan suhbatimiz shu  
haqda bo‘ldi.

Davomi 5-betda



## YERNI SEVGANLAR YURTGA BARAKA OLIB KELADI



Bog‘bon Cho‘liboy Xoliqov quyosh  
ufqdan bosh ko‘tarmay bog‘ bag‘riga otlanadi.  
Bog‘ni ko‘zdan kechiradi, yerni kuzatadi,  
daraxtlarga ishlov beradi. Ha, u uchun bog‘  
shunchaki daromad manbai emas, bolalikdan  
mehri tushgan joy, mehnat va tirishqoqlikka  
undaydigan qadrdon hudud.

Surxondaryo viloyatining Denov tumani Dahana mahallasida  
daraxtlari keng quloch yozgan, mevalari g‘arq pishuvchi fayzli  
bog‘lar bor. Ulardan birining bog‘boni mahallada yashovchi  
Cho‘liboy Xoliqov. U qariyb o‘ttiz yildan buyon shu kasb bilan  
shug‘ullanadi. Bu ozmuncha muddat emas. Yuzlab daraxtni  
sabr bilan parvarish qilgan, har bir novdaga qalb qo‘rini berib  
ulg‘aytirgan.

Davomi 4-betda





## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ TO‘RT YILLIGI MUNOSABATI BILAN HARBIIY XIZMATCHILAR VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

### Boshlanishi 1-betda

**Babayev Akmal Abdulkarimovich** — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi o‘quv markazi boshlig‘i  
**Baynova Yamilya Salimyanovna** — Xorazm viloyati Davlat arxivi bosh arxivchisi  
**Botirov Nodir Baxtiyorovich** — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi markaziy apparati bo‘lim bosh serjanti yordamchisi  
**Ziyatov Asamiddin Xolmuminovich** — Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo‘l-patrol xizmati inspektori  
**Qoriyog‘diyev Laziz Norqulovich** — Buxoro viloyati Bojxona boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i  
**Mirzaraximov Shavkatjon Joldoshevich** — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism komandirining birinchi o‘rinbosari  
**Muhammadiyev Sherali Safarovich** — Qashqadaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Ekspert-kriminalistika markazi bosh eksperti  
**Nosirov Abduxalil Rustamovich** — Buxoro viloyati Jondor tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i  
**Sabirov Ajibov Maxametsaliyevich** — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bo‘lim boshlig‘i

**Sulaymanov Ulmas Nazarovich** — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar bo‘limi boshlig‘i  
**Tadiyev Ibragim Isakovich** — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi  
**Tleubayev Allayar Baxtiyarovich** — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism bosh serjanti  
**Usanov Otabek Eshqobulovich** — Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani prokurori  
**Xalilov Umar Muhammadovich** — O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi maxsus boshqarmasi guruh yo‘riqchi-qutqaruvchisi  
**Shodiyev Erkin Samiyevich** — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh mutaxassisi  
**Ermatov Bunyodjon Sirochidinovich** — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism mutaxassisi  
**Yuldashev Jonibek Zaripbayevich** — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh yo‘riqchi-serjanti

### “Sog‘lom turmush” medali bilan

**Xudaynazarov Mansurbek Baxtiyorovich** — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy gospitali boshlig‘i

### “Shuhrat” medali bilan

**Aliyev Mirazim Akmalovich** — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi Milliy kinologiya markazi bo‘lim boshlig‘i  
**Ataxanov Dastan Kadirbayevich** — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Nukus shahar favqulodda vaziyatlar bo‘limi yo‘riqchi-qutqaruvchisi  
**Ashirmatova Barno Saataliyevna** — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi markaziy devoni boshqarmasi katta ofitseri  
**Mavlonov Mardon Abduxamid o‘g‘li** — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi

**Mansurova Zulfiya Saidmurodovna** — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bosh boshqarmasi bosh mutaxassisi

**Murzaev Rustam Kamilovich** — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi Markaziy bojxona laboratoriyasi boshlig‘i o‘rinbosari

**Murodov Zoir Zokirovich** — Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi G‘jduvon tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari

**Narjigitov O‘tkir Arzikulovich** — Toshkent viloyati Chinoz tumani ichki ishlar bo‘limi katta tergovchisi

**Nurjanov Ziyodbek Erkinovich** — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh komandiri

**Rustamov Sardorbek Axmatjonovich** — Andijon viloyati Andijon tumanlararo iqtisodiy sudi raisi

**Rustamov Tursunboy Baxtiyorovich** — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Navoiy shahar bo‘limi boshlig‘i

**Suvanov Alisher Karimovich** — Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Jarqo‘rg‘on tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limi qutqaruvchi-yong‘in o‘chiruvchisi

**Hazratqulov Zahridin Sobirjanovich** — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i

**Xaydarov Muzaffar Raxmonaliyevich** — Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

**Xudayberdiyeva Roxila Axmadovna** — Navoiy viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi

**Xudoyberdiyev Baxodir Abdurayimovich** — Surxondaryo viloyati Angor tumani adliya bo‘limi Davlat xizmatlari markazi direktori

### O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,  
2025-yil 24-avgust

### SH. MIRZIYOYEV

## O‘ZBEKISTON – IORDANIYA: HAMKORLIKNING YANGI UFQLARI SARI

### Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Respublikasi bilan Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1993-yil fevral oyida o‘rnatilgan. O‘tgan yillar davomida ikki davlat rasmiy aloqalardan siyosat, iqtisodiyot va madaniy-gumanitar sohalarini qamrab olgan har tomonlama hamkorlikka o‘tdi. 1994-yil iyun oyida Toshkentda Iordaniya elchixonasi o‘z faoliyatini boshladi. Hozirda qarorgohi Ar-Riyozda bo‘lgan O‘zbekiston elchisi bir vaqtning o‘zida Ammanda akkreditatsiyadan o‘tgan.

Bundan tashqari, 2007-yilning avgust oyidan buyon podshohlik fuqarosi Luay Abu G‘azzala rahbarlik qilayotgan O‘zbekistonning Iordaniyadagi faxriy konsuli instituti faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston va Iordaniya o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan buyon oliy darajadagi siyosiy muloqotlar asosan xalqaro maydonlarda uchrashuvlar, telefon orqali muloqotlar va yuqori darajadagi tashriflar almashish formatida olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda ikki tomonlama aloqalar yangi sur‘atga ega bo‘ldi. Tomonlar o‘zaro manfaatli muhim salohiyatga tayangan holda hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish istagini namoyon etmoqda.

Joriy yilda O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidov boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi Ammanga tashrif buyurdi va unda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Podshoh Abdulla II ibn al-Husaynga samimiy tilaklari yetkazildi. Delegatsiya Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn tomonidan qabul qilindi. Bosh vazir o‘rinbosari, tashqi ishlar vaziri Ayman as-Safadiy bilan muzokaralar, shuningdek, sarmoya, biliy ta‘lim, vaqflar, islom ishlari va muqaddas qadamlar vazirliklari rahbariyati, yirik kompaniyalar vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

Diplomatik pasport egalari uchun viza rejimini bekor qilish to‘g‘risidagi bitim, shuningdek, Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma hamkorlik dasturi imzolanganiga e‘tiborli natijalardan biri bo‘ldi. Bu qadamlar o‘zaro munosabatlarni tizimli qilish va ularni yangi bosqichga olib chiqish istagini namoyon etadi. O‘zbekiston odatda ochliklik va ko‘p vektorli tashqi siyosat yo‘nalishini namoyish etmoqda. Rasmiy Toshkentning so‘nggi yillarda Yaqin Sharq mamlakatlari bilan o‘zaro aloqalari faol rivojlanmoqda, bu, xususan, Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashiga a‘zo mamlakatlar bilan 2020-2023-yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb besh baravarga oshganida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonning Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar kabi ko‘p tomonlama formatlardagi ishtiroki O‘zbekiston — Iordaniya munosabatlarni chuqurlashtirish uchun qo‘shimcha platforma yaratmoqda.

O‘zbekiston va Iordaniya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik nisbatan kamtarona darajada qolmoqda, biroq tomonlar uni faollashtirish strategiyasini belgilab

olgan. Jumladan, 2024-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb 4,6 million AQSH dollarini tashkil etdi. Iordaniya O‘zbekistonga farmatsevtika mahsulotlari, kimyo mahsulotlari, asbob-uskunalar va mashinalar yetkazib beryapti, O‘zbekiston esa mis, quritilgan mevalar, yong‘oq va to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qiladi.

Ikki mamlakat investitsiya, sanoat va savdo vazirlari o‘rtasidagi 2025-yildagi muzokaralar hamkorlikni kengaytirishga tayyor ekanliklarini tasdiqladi. Tovarlarining ikki mamlakat bozorlariga chiqishini

Madaniy-gumanitar hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlari qatoriga akademik almashinuvlarni kengaytirish, qo‘shma ta‘lim dasturlari va talabalar uchun stipendiyaalar ajratish, umumiy tarixiy-madaniy merosga bag‘ishlangan festivallar, ko‘rgazmalar va konferensiyalar o‘tkazish, islomshunoslik, ilohiyotshunoslik, tarix va arxeologiya sohasidagi hamkorlik, sog‘liqni saqlash, shu jumladan, qo‘shma tibbiy dasturlar va teletibbiyot sohasida tajriba almashish kiradi.

Ma‘naviy qadriyatlarining yaqinligi uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam



**“O‘zbekiston va Iordaniya o‘zaro ishonch, umumiy madaniy qadriyatlar va bir-birini to‘ldiradigan iqtisodiy salohiyatga asoslangan manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qodir. Rejalashtirilgan tashabbuslarning amalga oshirilishi nafaqat hamkorlikni chuqurlashtirish, balki uni Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda barqarorlik va taraqqiyotning muhim omiliga aylantiradi.**

soddalashtiradigan imtiyozli savdo bitimini imzolash, tog‘-kon sanoati, jumladan, fosfatlar, mis va boshqa foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash sohasida hamkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatidagi aloqalarni mustahkamlash, farmatsevtika, to‘qimachilik, yengil sanoat va raqamli iqtisodiyot jabhalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish muhim yo‘nalishlar qatoriga kiradi.

Tadbirkorlar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarni yo‘lga qo‘yish, tarmoq ko‘rgazmalari, biznes-forumlar va savdo missiyalarini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston — Iordaniya ishbilarmonlar kengashini tashkil etish niyati alohida ahamiyatga ega. Iordaniya, shuningdek, o‘zining qulay geografik joylashuvidan O‘zbekiston tovarlarining Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika bozorlariga chiqishi uchun xab sifatida foydalanishni taklif qilmoqda. O‘zbekiston va Iordaniya o‘rtasidagi aloqalar chuqur tarixiy asosga ega. Har ikki davlatni islom madaniyati, umumiy tarixiy meros va ko‘p asrlik diniy va madaniy almashinuv an‘analari birlashtiradi. Bu o‘ziga xos ishonch va o‘zaro tushunish muhitini yaratadi hamda ikki tomonlama munosabatlarning gumanitar jihati uchun, ayniqsa, muhimdir.

poydevor yaratmoqda, bunda madaniy almashinuvlar umumiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylanayotir.

Iordaniya vakillari so‘nggi yillarda O‘zbekistonda o‘tkazilgan xalqaro madaniy tadbirlarda, jumladan, Xalqaro maqom san‘ati festivali (2018-yil sentabr, Shahrisabz) va Xalqaro hunarmandchilik festivali (2019-yil sentabr, Qo‘qon)da faol ishtirok etdi.

Albatta, O‘zbekiston va Iordaniya o‘zaro ishonch, umumiy madaniy qadriyatlar va bir-birini to‘ldiradigan iqtisodiy salohiyatga asoslangan manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qodir. Rejalashtirilgan tashabbuslarning amalga oshirilishi nafaqat hamkorlikni chuqurlashtirish, balki uni Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda barqarorlik va taraqqiyotning muhim omiliga aylantiradi.

Shu nuqtayi nazaridan, Iordaniya yetakchisining O‘zbekistonga bo‘ljak tashrif ikki tomonlama sheriklikni kengaytirish uchun yangi ufqlarni ochadi. Aniq kelishuvlar bilan mustahkamlangan tomonlarning siyosiy irodasi esa o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish va gumanitar aloqalarni mustahkamlash uchun sharoit yaratadi.

“Dunyo” AA

## PROKUROR VA ICHKI ISHLAR ORGANI BOSHIG‘INING XIZMAT XONASI MAHALLAGA KO‘CHADI

### Bu o‘zgarishlardan qanday maqsad ko‘zlanmoqda?

**Bugungi zamonaviy dunyoda sarhadlar faqat simto‘siq yoki devorlar bilan himoyalangan chegara mohiyatini yo‘qotib, tobora chuqurlashib borayotgan globallashuv jarayoni hisobiga kengaymoqda. Shunday murakkab vaziyatda jamiyatda tinchlik-osoyshtalik, xavfsizlikni saqlash, qonun ustuvorligini ta‘minlash har qachongidan ham muhim vazifaga aylanmoqda. Chunki tinchlik-xotirjamlik bor joydagina inson halovatli hayot kechiradi, ishida unum va baraka bo‘ladi, iqtisodiyot rivoji, aholi farovonligi ta‘minlanadi.**



Bu borada birinchi galda mahallalarda xavfsiz muhit yaratish muhim vazifadir. Zero, mahalla tinch bo‘lsa, yurt tinch bo‘ladi. Mahalla obod bo‘lsa, butun mamlakat obod bo‘ladi. Shu bois, keyingi yillarda yurtimizda mahalla institutining maqomi oshirilib, vakolati kengaytirildi. Jumladan, mazkur institut faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan 100 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Mazkur chora-tadbirlar mahallaning tadbirkorlik va bandlik markaziga, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar hal etiladigan yaxlit maskanga aylanishiga zamin yaratmoqda. Sohadagi islohotlar natijasida mahalla hayotimizga daxldor barcha masalani hal etishda xalq va davlatni bir-biriga yaqinlashtirib, munosabatlarni tartibga soluvchi muhim tuzilmaga aylandi.

Muhim yutuq va natijalar raqamlarda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xususan, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tomonidan taqdim etilgan 2025-yildagi asosiy ko‘rsatkichlarga ko‘ra, “mahalla yettilligi” modeli asosida aholining 84 foiz muammo va ehtiyojlari mahallalarda hal etilmoqda. 3 million ishsiz fuqaro daromadli mehnatga jalb etildi. 1642 mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylantirildi.

Shuningdek, oilalar xatlovdan o‘tkazilib, kambag‘al oilalar a‘zolari bilan individual ishlannoqda. Bu jarayonda ishsizlarga kasb-hunar o‘rgatish, ishga joylash va tadbirkorlikka jalb etish chorasi ko‘rilyapti. Xotin-qizlarni qiynayotgan muammolar aniqlanib, ularga to‘g‘ri yechim topilyapti. Ajralish yoqasiga kelib qolgan 70,5 mingga yaqin oila yarashtirildi. 259 mingga yaqin xotin-qizga ko‘mak berildi. “Qizil” va “sariq” toifaga kiritilgan mahallalar va ko‘p qavatli uylarga xavfsizlik kuzatuv moslamalari o‘rnatildi. Natijada 2846 mahalla oilaviy ajralishdan xoli hududga aylandi, ko‘pgina mahallalarda umuman jinoyat sodir etilmadi.

Ayni paytda bu ishlar davom ettirilib, “Raqamli mahalla” platformasida “Ombor daftari” to‘liq raqamlashtirildi. Aholining “mahalla yettilligi”ga murojaat qilish tizimi joriy etildi. Migratsiya, “yagona savolnoma”, “ijtimoiy reyestr” modullari ishga tushirildi.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida aholining tomorqadan unumli foydalanib, daromad olishi va band bo‘lishiga ko‘maklashish bugun eng samarali usullardan. Aholiga bu borada kengroq qulaylik yaratish maqsadida tomorqalarni sug‘orish tizimi yaxshilanmoqda. Shu maqsadda suv yo‘li betonlanib, lotoklar o‘rnatilmoqda. Natijada joriy yilning o‘tgan davrida tomorqalarda yetishtirilgan meva-sabzavot eksporti 274 million dollarni tashkil etdi. Bu dasturxonlarimiz to‘kinligi, hayotimiz to‘kisligi va farovonlikka xizmat qilyapti.

Bu yutuqlar barobarida mahallalarda ishga solinmagan imkoniyatlar ham ko‘p. Ayniqsa, mahallalarda xavfsiz muhit yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etiladigan qonunbuzarliklarning asl omillarini o‘z vaqtida aniqlash va kompleks chora-tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish muhim vazifa.

Prezidentimizning joriy yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida bu borada keng qamrovi ishlar qilinmoqda. Xususan, har bir viloyat, tuman va mahalla bo‘yicha manzilli “yo‘l xaritalari” asosida ijtimoiy profilaktikaning samarali tizimi yo‘lga qo‘yildi. Jamoat joylarini raqamlashtirish qamrovi oshirildi. Huquq-tartibot oliyoghlari tomonidan ilmiy-amaliy o‘rganishlar o‘tkazildi. Voyaga yetmaganlar, yoshlar, ayollar va oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatchilikni jilovlashga alohida e‘tibor qaratildi. Natijada 5200 ta mahallada birorta ham jinoyat sodir bo‘lmadi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 18-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi. Binobarin, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad mahallalarda xavfsiz muhit yaratish bo‘yicha tashkiliy-profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda manzilli ishlash mexanizmlarini joriy etishdir.

Shu maqsadda kriminogen vaziyati murakkab mahallalarni sun‘iy intellektda ishllovchi maxsus dasturiy ta‘minotga integratsiya qilingan zamonaviy kuzatuv kameralari bilan to‘liq qamrab olish ko‘zda tutilgan. Joriy yil yakuniga qadar jismoniy shaxslar mol-mulkini texnik qo‘riqlash qamrovini 30 foizga, yuridik shaxslar mol-mulkini qo‘riqlash qamrovini esa 60 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Shuningdek, ichki ishlar organlarida yuqori malakali kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadida Ichki ishlar vazirligi akademiyasida masofaviy ta‘lim shakli joriy etiladi hamda bakalavriat dasturi bo‘yicha qabul kvotalari jinoyatma-bosqich oshiriladi.

Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha manzilli choralar konsepsiyasi tasdiqlandi. Mahallalarda alohida tashkiliy-profilaktik tadbirlar hamda manzilli choralar bilan ilmiy-amaliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish xavfsiz muhit yaratish konsepsiyasining asosiy maqsadidir.

Konsepsiyaga ko‘ra, tuman (shahar) ichki ishlar organi boshlig‘i va prokurorning xizmat xonasi 2025-yil yakunigacha bevosita mahallada tashkil etilib, kundalik ishining boshlanishi va yakuni aynan o‘sha yerda amalga oshiriladi.

Joylarda bosqichma-bosqich mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Ijtimoiy profilaktika obyektlari, ayniqsa, oila-turmush doirasida huquqbuzarliklar sodir etuvchi shaxslar (janjalkash va nizoli oilalar)ning holidan majburiy ravishda kamida har 3 kunda xabar olish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Mahallalarda jinoyatchilikning oldini olish borasida “mahalla yettilligi” tomonidan fuqarolar o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarni o‘tkazuvchi “mahalla targ‘ibotchisi” jamoatchilik guruhlari tashkil etiladi. Mahalladagi jamoat joylari, ko‘p qavatli turar joy va uylar oldida “tashvish” tugmalari o‘rnatiladi.

Bu chora-tadbirlar mahalla institutining jamiyatdagi mavqeini tubdan oshirish va aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida samarali ishlashini ta‘minlashda yangi istiqbollarni ochadi.

**Bahor XIDIROVA,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**





Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

# KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKlarda INSON QADR-QIMMATI

## Boshlanishi 1-betda



**Akmal RAHMONOV,**  
Konstitutsiyaviy sud sudyasi,  
yuridik fanlar nomzodi

Fikrimizcha, aynan shu jihat davlatimiz rahbari boshchiligidagi amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlarga rag‘bat bermoqda, xalqimizning yuksak ishonchini belgilamoqda. Elimizning shu maqsadda birga intilish istagi esa xalqchil davlat va jamiyat qurish, erkin va farovon turmush sharoitlarini yaratish yo‘lida o‘ziga xos yangilanishlarning sifat belgisidir. Bu ertangi kunga ishonch omili va baxtli kelajak garovi hisoblanadi.

Darhaqiqat, Prezidentimizning shu yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida qayd etilganidek, O‘zbekiston tobora inson qadri, huquq va manfaatlarini ulug‘lanadigan ijtimoiy davlatga aylanib bormoqda. Bandlikni ta‘minlash, zamonaviy ish o‘rinlarini ko‘paytirish, kambag‘allikni qisqartirish, yordamga muhtoj toifalarni katta qalbiy natijalar beryapti.

Gap inson qadri haqida borar ekan, uni ulug‘lash, huquq va manfaatlarini ta‘minlash masalasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlangan. Bosh qonunimizdagi ayni yo‘nalishga doir asosiy prinsip va normalarni hayotga izchil tatbiq etish bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlarda tizimli chora-tadbirlar ko‘rilayotganini alohida qayd etish lozim.

Bunda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosini samarali ta‘minlash, shuningdek, davlat organlariga zamonaviy boshqaruv tamoyillari, raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, rahbar kadrlar mas‘uliyatini oshirish, aholi bilan ishlashda byurokratik to‘siqlarni qisqartirish, davlat xizmatlarini soddalashtirish, ochiqlik va oshkorlik, jamoatchilik nazorati kabi mexanizmlarni natijadorlikka yo‘naltirish oldingi o‘ringa chiqdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga inson huquqlariga oid muhim g‘oya va qoidalarini aks ettiruvchi qator asosiy o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan milliy huquq tizimining sifat jihatidan yangilanishiga asos yaratadi.

Inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida tan olinib, ilgari “davlat — jamiyat — inson” paradigmasi o‘rniga “inson — jamiyat — davlat” tamoyili o‘zaro munosabatlarning asosi sifatida qo‘yildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz kiritilgan normalarning yamidan ko‘pi inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish hamda mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Mamlakatni demokratik yangilash, inson huquq va erkinliklari himoyasidagi eng muhim kafolatlar sifatida Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta‘minlashning konstitutsiyaviy mexanizmlari sezilarli darajada mustahkamlandi. Asosiy shaxsiy huquq va erkinliklarni ta‘minlashning konstitutsiyaviy kafolatlari kuchaytirildi. Umuman olganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz xalqimiz farovonligini oshirish, davlat va fuqarolik jamiyati jadal rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi.

Konstitutsiyaning 33-moddasidagi “Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi” degan norma milliy huquq tizimida, uni huquqiy anglash va farqlash, amalga oshirish mexanizmlarida ochilmagan ko‘p qirralar borligini ko‘rsatadi. Bu ham jahon konstitutsiyaviy amaliyotida hali ko‘p tarqalmagan normalardan. BMTning 2011-yil 3-iyundagi rezolyutsiyasida Internetdan foydalanish huquqi insonning ajralmas huquqlaridan biri sifatida e‘tirof etilgan. 2024-yil 23-fevralda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga respublika hududida Internet va aloqa qamrovini kengaytirish uchun sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi konstitutsiyaviy norma ijrosiga qaratilgan dastlabki qadam bo‘ldi. Binobarin, hujjat respublika hududining yuqori tezlikdagi Internet va sifati aloqa bilan qamrab olinishi, yo‘ldosh aloqa tarmoqlari, shuningdek, telekommunikatsiyalar sohasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirishga qaratilgan o‘zgarishlarni nazarda tutadi.

Bosh qonunimizga fuqarolar konstitutsiyaviy huquq va erkinligini ta‘minlash mexanizmlarini mazmunan va sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadigan qo‘shimchalar kiritilganini e‘tirof etish lozim.

Jumladan, inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi (19-modd). Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi, qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llanadigan huquqiy ta‘sir choralari mutanosiblik prinsipi asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak (20-modd). Ushbu masalaga ilmiy-nazariy jihatdan yondashsak, huquqshunos olimning

qoidasi” umum-e‘tirof etilgan institutlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash orqali sezilarli kuchaytirildi.

Tabiiyki, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq hamda erkinliklarini ta‘minlashda sud hokimiyatining o‘rni beqiyos. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida sud tizimi uchun “Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” yo‘nalishida 18 ta aniq vazifa belgilab berildi.

Sud islohoti doirasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan yana bir muhim hujjat Prezidentimizning 2023-yil 16-yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonidir. Ushbu hujjat bilan 2023-2026-yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi tasdiqlandi. Uning asosiy vazifasi “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida “Yangi O‘zbekiston — yangi sud” tamoyili doirasida chinakam adolati sud



tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaatini va inson qadr-qimmatini samarali himoya etishga yo‘naltirish bo‘ldi. Unda adolati sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqimiz, jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalr siymosida o‘zining ishonchli himoyachisiga erishish bo‘yicha 40 ta vazifa belgilab berildi.

Sohadagi islohotlar doirasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning xalqchil norma va prinsiplarini hayotga izchil tatbiq etish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rildi. Jamiyat va davlatni Konstitutsiyaga muvofiq huquqiy



**ASOSIY MAQSAD —  
XALQIMIZNI DAVLATDAN  
ROZI QILISH. SHUNING  
UCHUN XALQIMIZ TAQDIRI  
VA ERTANGI KUNINI  
BELGILAB BERUVCHI BOSH  
QONUNIMIZNING NORMA VA  
PRINSIPLARINI OG‘ISHMAY  
RO‘YOBGA CHIQARISH YANGI  
O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISH  
JARAYONIDA ENG USTUVOR  
VAZIFA BO‘LIB  
QQLAVERADI.**

ularning faoliyati yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitda yo‘lga qo‘yildi.

Agar bu yo‘nalishga insonlarning buzilgan huquq va manfaatlarini tiklanishida muhim o‘rin tutadigan hokimiyat tarmog‘i misolida qarasa, odil sudlovni ta‘minlashga doir qator muhim jihatlarini ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq. Xususan, sud-huquq tizimidagi strategik islohotlar samarasini ta‘minlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning norma va prinsiplari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Sud organlari tizimida odil sudlovni ta‘minlash borasidagi ishlar aholi, muammolar va istiqbolidagi vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishda Prezidentimizning “Asosiy maqsadimiz fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish orqali xalqimizning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini qat‘iy mustahkamlash, sudni tom ma‘noda “adolat qo‘rg‘oni”ga aylantirishdan iboratidir”, degan konseptual fikri mazkur sohadagi islohotlarning asosiy mazmunini aks ettiradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning sud hokimiyatiga bag‘ishlangan bobidagi 11 ta maddada odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, sud hokimiyatining huquq va majburiyatlarini, sud qarorlari barcha uchun majburiylik, sudya va oila a‘zolarining xavfsizligini ta‘minlash, sudyaning muayyan ishni ko‘rishdagi vakolatlari hamda sudlar faoliyatini moliyalashtirish kabi 30 dan ziyod muhim konstitutsiyaviy norma mustahkamlandi. Bularning barchasi sudyalr mustaqilligi, odil sudlov tizimini demokratlashtirishning konstitutsiyaviy asoslari qonun ustuvorligini

bo‘lishi mumkin emasligiga oid kafolatlar kuchaytirildi. Xususan, qarindoshining sudlangani va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish va uni o‘tash chog‘ida huquqlarni cheklash uchun asos bo‘lmisligi belgilandi.

To‘rtinchisi, davlatimiz rahbarining 2024-yil 10-maydagi “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan muhofaza qilish tizimi takomillashtirildi. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki jabrlanish xavfi ostidagi xotin-qizlarga himoya orderi talab etmagan holda ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmat ko‘rsatish tartibi joriy etildi.

Beshinchisi, 2024-yil 21-oktabrda qabul qilingan “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan bolalar huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi. Shuningdek, 2024-yil 14-noyabrda “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun ham Konstitutsiyaning 78-moddasida belgilangan bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha davlatning zimmasidagi majburiyatini ta‘minlashga xizmat qiladi.



ta‘minlashning muhim shartlari sifatida sezilarli darajada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Uchinchisi, inson huquq va erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatiga bevosita daxldor hujjatlar qatorida 2024-yil 20-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan Konstitutsiyaning qator moddalarida mustahkamlangan inson huquq va erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, shaxsning sudlangani uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos

Oltingchisi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi qonun (2024-yil 15-noyabr) bilan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) vakolatlari kengaytirildi. Xususan, u ogohlantirish, xulosa, iltimosnoma, taqdimnoma va da‘vo arizasi kabi besh turdagi ta‘sir hujjatini qo‘llash huquqiga ega bo‘ldi.

Yetinchisi, Konstitutsiyaning 43-moddasida mustahkamlangan davlatning kambag‘allikni qisqartirish choralari ko‘rish bo‘yicha

majburiyati doirasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrda “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi farmoni, o‘sha kuni qabul qilingan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda 2024-yil 4-oktabrda “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, har bir fuqaroni o‘zi va farzandlari kelajagi uchun mas‘uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi amalga oshirilmoqda. Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oila a‘zosi uchun ijtimoiy soliq 3 yil 1 foiz stavkada to‘lanishi belgilandi.

Sakkizinchisi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasida har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish, buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolati, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlangan. Shundan kelib chiqib, umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan Konstitutsiyani to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llash amaliyotining keng yo‘lga qo‘yilishiga Oliy sud plenumining 2023-yil 23-iyundagi “Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi zarur sharoit yaratganini ta‘kidlash lozim.

Mazkur qarorda Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi haqidagi qoida uning normalari barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan ustun turishini anglatadi. Shunga ko‘ra, sudlar ko‘rib chiqilayotgan huquqiy munosabatlarda Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi oliy yuridik kuchga ega normativ-huquqiy asos sifatida qo‘llash lozimligi belgilandi. Sudlar Konstitutsiya normasini tegishli qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmagani vaji bilan qo‘llashni rad etishiga yo‘l qo‘yilmisligi ko‘rsatildi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytganda, Konstitutsiyamiz mazmuniga chuqur singdirilgan “Inson qadri uchun” g‘oyasi hamda “Inson — jamiyat — davlat” tamoyilini asosiy qadriyatlarimizdan biriga aylantirish zarur. Ya‘ni insonning qadr-qimmatini, sha‘ni va g‘ururi bundan buyon barcha sohada birinchi o‘rinda turishi kerak. Chunki keyingi 7-8 yillik juda qisqa muddatda shunday qarashlarimiz, maqsad-muddoalarimiz va albatta, shunga yarasha sa‘y-harakatlarimiz evaziga katta, salmog‘i jihatdan 50-100 yillikka yetar yilgi natijalarga erishad.

Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda Amir Temur bobomizning “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”, degan fikridan bejiz iqtibos keltirmagan deb o‘ylayman. Chunki Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta‘minlash demokratik huquqiy davlatning bosh mezonidir. Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyot ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta‘minlashiga bevosita bog‘liq.

Jamiyatning barcha qatlami manfaatlarini inobatga olingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini samarali ta‘minlashga hissa qo‘shdi, davlatning xalq oldidagi majburiyatini bir necha barobar oshirdi. Asosiy maqsad — xalqimizni davlatdan rozi qilish. Shuning uchun xalqimiz taqdiri va ertangi kunini belgilab beruvchi bosh qonunimizning norma va prinsiplarini og‘ishmay ro‘yobga chiqarish yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida eng ustuvor vazifa bo‘lib qolaveradi.







“

— Mikrobiologiya inson salomatligi, sayyoramiz ekologiyasi, barqaror qishloq xo‘jaligi, istiqbolli biotexnologiyalar uchun javob beradigan fan. Bugungi kunda bu fan ko‘p bosqichli global vazifalarning yechimini topish yo‘lida xizmat qiladi.



Boshlanishi 1-betda

— 2017-yildan mamlakatimizda ilm-fan davlat modernizatsiyasining strategik yo‘nalishi sifatida yangi bosqichga ko‘tarildi, — deydi Qahramon Davronov suhbatimiz avvalida. — Ya‘ni ilm-fan sohasida ancha o‘rqa qolganimiz ochiqchasiga tan olinib, akademik tizimni isloh qilish bo‘yicha ishga kirishildi. Ayniqsa, Fanlar akademiyasida sezilarli islohotlar o‘tkazildi. Turli sohalarga o‘tkazib yuborilgan institutlar yana akademiya qaytarib berildi. Bir so‘z bilan aytganda, Fanlar akademiyasi qayta tuzildi, uning mustaqil maqomi tiklandi. Ilm-fanda amaliy yo‘nalishlar, jumladan, materialshunoslik, qishloq xo‘jaligi texnologiyalari va boshqa sohalarda rivojlanish



sezilarli darajada namoyon bo‘la boshladi. Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish faollashdi.

Universitetlardagi o‘quv dasturlar qayta ko‘rib chiqildi va asosiy yo‘nalish talabalarini ko‘proq ilmiy izlanishlarga jalb qilishga qaratildi. Doktorantura, tayanch doktorantura, stajyor tadqiqotchilik orqali ilmiy izlanish qilish kengaytirildi, yosh olimlarning grantlar va startap loyihalarida ishtiroki rag‘batlantiriladigan bo‘ldi. Bu jarayon hozir ham izchil davom etmoqda. Xullas, keyingi 7-8 yilda O‘zbekistonda ilm-fanga munosabat tubdan o‘zgardi. Ilm-fanning rolini rasman tan olishdan real amaliy harakatlarga o‘tdi. “Ilmiy asoslangan tadbirkorlik” iborasi paydo bo‘ldi. Ya‘ni ilm-fan kun tartibimizning ajralmas qismi va iqtisodiy modernizatsiya hamda ta’limdagi muhim vositaga aylanib bormoqda. Ammo hali yechimini kutayotgan muammolar bor. Ular ilmiy maqolalarning past iqtiobos darajasi, infratuzilma zaifligi, xalqaro aloqalar yetarli emasligi, shuningdek, ilmiy etika va tadqiqot sifati, qog‘ozbozlik, ko‘p sohalarda uzoq istiqbol rejalarini tashkil qilinmagani bilan bog‘liq.

— XXI asr “biologiya asri” degan qarashlar ham yo‘q emas. Nima sababdan bugungi kun va yaqin kelajakda aynan biologiya dunyo sivilizatsiyasida asosiy rolni bajarishi kerak degan savolning javobi ko‘pchilikni qiziqtiradi.

— Hayot haqidagi fan (biologiya) zamonaviy dunyoning dolzarb muammolariga yechim topishda asosiy rol o‘ynaydi. Misol uchun, iqlim



o‘zgarishi bugungi kunda global muammoga aylangan. Qurg‘ochilik va sho‘rga chidamli o‘simliklar yaratish, biologik parchalanuvchan materiallar, mikrosvu‘tlar va tuproqda yashovchi mikroorganizmlar yordamida iqlim o‘zgarishining oldini olish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin. Bunday usullarni yer yoki bir necha laboratoriya, institutlardagina emas, balki rivojlangan, iqlim o‘zgarishi muammosiga o‘z “hissasini” faollik bilan qo‘shib kelayotgan mamlakatlarda bir vaqtda amalga oshirish lozim. Zamonaviy dunyoning yana bir global muammosi — aholi soni oshib borishi va oziq-ovqat muammosiga yechim topish. Dunyo aholisi har 10-11 yilda 1 milliardga ko‘paymoqda. BMThng Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ekspertlarining 2023-yildagi ma‘lumotiga ko‘ra, dunyoda 735 million odam to‘yib ovqatlanmaslikdan aziyat

chekadi. 2050-yilga kelib, Yer shari aholisi 9,7 milliardga yetishi esa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni 60-70 foiz oshirishni talab qiladi. 2022-2024-yillarda bug‘doy, o‘simlik yog‘i va o‘g‘it narxi oshib ketdi. Har qanday harbiy muammo oziq-ovqat yetishmovchiligini yanada oshirib yuboradi.

Biotexnologik usullar, geni o‘zgartirilgan organizmlardan genomni tahrirlash, mikrobl o‘g‘itlar va biostimulyatorlardan foydalanish bu muammoning yechimini topishda yordam beradi. Vaksinalar, yangi xususiyatga ega antibiotiklar yaratish, gen terapiyasi, diagnostika hamda davolashning yangi usullaridan foydalanish molekulyar biologiya, genetika va immunologiyani chuqur tushunishni talab qiladi.

Biz yashab turgan dunyoda organizmlar DNKsini nuqtalab o‘zgartirish orqali kerakli xossa va xususiyatlarga ega bo‘lgan hayotning yangi shakllarini yaratish mumkin. Bunday shakllar tashqi muhit ta‘siriga chidamli o‘simliklardan boshlab, noyob genetik kasalliklarni davolashgacha bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga oladi.

Keyingi yillarda sintetik biologiya rivojlanib bormoqda. Zamonaviy biologiyaning bu tarmog‘i xususiyatlari oldindan belgilangan tirik organizmlarni shakllantirish, masalan, plastikli parchalash xususiyatiga ega yoki kerakli dorilarni sintez qila oladigan bakteriyalar yaratish bilan shug‘ullanadi.

Shu bilan birga, biologiyaning “Hujayra texnologiyalari va regenerativ tibbiyot” deb atalgan yangi sohasi ancha faollashmoqda. Bu soha ildiz hujayralari va to‘qima muhandisligini rivojlantirish asosida buyurtma bo‘yicha organlar yaratish va hujayralarni yoshartirish imkonini beradi.

Umuman, oxirgi paytlarda biologiyaning qator yangi yo‘nalishlari paydo bo‘lyaptiki, ular bugun va kelajak bilan bog‘liq. Masalan, bioinformatika va sun‘iy intellekt yordamida organizmlarda sintez bo‘ladigan oqsil moddalar xususiyatlarini baholash, dorivor moddalarni tezlashtirgan holda sinovdan o‘tkazish mumkin. Yoki laboratoriyadan chiqmasdan tirik tizimlarni raqamli modellashtrish, kerakli dorilar, hattoki odamning “raqamli egizak”larini

“

**Bugungi kunda mikrobiologiya barqaror rivojlanishning asosiy vositasi sifatida bir necha muammolar yechimini topishda katta rol o‘ynamoqda. Bular — inson va hayvon salomatligini muhofaza qilish, oziq-ovqat va biologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiatni qayta tiklash, barqaror ishlab chiqarishni ta‘minlash. Ilmiy, innovatsion yondashuvlar asosida ushbu masalalarga munosib yechim topish mumkin.**

bunday tadqiqotlar o‘tkazishni instrumentlar (metodlar, asbob-uskunalar) bilan ta‘minlab turadi.

Biologiya nafaqat tiriklikni o‘rganuvchi fan, balki bugungi kunda insoniyat oldidagi eng muhim muammolarga yechim topish kaliti hamdir.

— **Unumdor yer keskin kamayib bormoqda, ekin maydonlari degradatsiyaga uchrayotir. Chorak asrdan so‘ng hosildorlik uchdan bir qismga kamayishi mumkinligi aytilmoqda. Buning oldini olish choralari bormi?**

— Eng avvalo, yer va tuproqning ma‘nosini to‘g‘ri tushunishimiz kerak. Yer umumiy tushuncha bo‘lib, bir necha ma‘noga ega. Masalan, Yer — sayyoramizning nomi. Yer — tuproqqa aylanib ulgurmagani jins. Yerd o‘simliklar o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur element va tirik organizmlar yo‘q. Yerdan faqat uy, ko‘prikl, yo‘l, zavod va fabrikalar kabi inson faoliyati uchun zarur inshootlar qurish uchun foydalanish mumkin.

Tuproq — yer qobig‘i ustida joylashgan hosildor qatlam, u turli tabiiy omillar ta‘sirida yuzaga kelgan. Iqlim, turli jonivorlar, jumladan, mikroorganizmlar ta‘sirida, toshlarning parchalanishi natijasida hosil bo‘lgan jins. Uning tarkibida mineral moddalar (qum, loy), organik moddalar (gumus), suv va havo bor hamda o‘simliklar o‘sishi, rivojlanishi, biomassa hosil qilishi uchun yaroqli tirik jins.

Bugungi kunga kelib, mana shu tuproq turli sabablardan tufayli degradatsiyaga uchrayapti. Uning sabablari juda ko‘p, bu masalaning javobini topish ko‘p vaqt talab qiladi.

Tuproq degradatsiyasiga qarshi turli choralarni mavjud. Bular sirasiga agrobiologik, mikrobiologik preparatlardan foydalanish, azotfiksatsiya hamda fosfat mobilizatsiya qiluvchi mikroorganizmlar faoliyati, minimal yoki nol ishlav berish (nol till), eroziyadan himoya qilish usullaridan foydalanish kabilarni kiradi. Misol uchun, tasma usulida tuproqqa ishlav berish o‘rmon xaxiralarini tashkil qilish va meliorativ tadbirlar, sho‘rlangan tuproqni yuvish va drenaj tizimlarini yaratish, suv tizimini yaxshilashda samara beradi.

Tuproqdagi biologik xilma-xillikni tiklash, tuproq holatini yaxshilovchi mikroorganizmlardan foydalanish, o‘simlik qoplamasini tiklash, yem-xashak ekish, agroo‘rmonchilikni rivojlantirish (qishloq

xo‘jaligi yerlarida sho‘rga chidamli daraxtlar ekish) ham foydadan xoli emas.

Davlat tomonidan tuproqni muhofaza qilish dasturlari va barqaror yer resurslaridan foydalanish uchun subsidiyalarni ajratish, ekotizim xizmatlarini joriy etish, fermerlarga ekologiyani saqlaganlik uchun qo‘shimcha haq to‘lashni yo‘lga qo‘yish kerak.

Tuproqni geoinformatsion tizimlar (GIT) orqali monitoring qilib borish, fermerlar va aholining ekologik savodxonligini oshirish zarurati bor. Tuproq degradatsiyasining oldini olish va uni qayta tiklash bo‘yicha qator xalqaro tashabbuslar ishlab chiqilgan. Masalan, “4 per 1000” dasturi tuproqdagi uglerod miqdorini har yili 0,4 foiz oshirib borish va uni rag‘batlantirish, BMThng Barqaror rivojlanish maqsadlaridagi 15-maqсад yer degradatsiyasini to‘xtatishni nazarda tutadi. Atrof-muhitni tuzatish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar va dasturlar ham shular jumlasidan.

Tuproq degradatsiyasi faqat ekologik emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammo hamdir. Bugungi kunda u oziq-ovqat xavfsizligi, biologik xilma-xillik va barqaror rivojlanishga tahdid solib kelmogda. Muammoni hal etish uchun bilim, siyosiy iroda va mahalliy hamjamiyatlar ishtiroki zarur.

— **Iqlim o‘zgarishi muammolari oziq-ovqat va energiya xavfsizligi bilan uzviy bog‘liq. Fanda bu muammoga qanday yechim izlanayapti?**

— Bu savolga javob berishdan oldin iqlim o‘zgarishiga olib keladigan asosiy omillarni o‘rganib chiqish zarur. Global iqlim o‘zgarishi omillarining asosiyalaridan biri issiqxona gazlari hisoblanadi. Ko‘mir, neft, gaz yoqilishi natijasida karbonat angidrid ( $\text{CO}_2$ ) hosil bo‘ladi. Chorvachilik, parrandachilik chiqindilari parchalanishi katta miqdorda metan ( $\text{CH}_4$ ) gazi paydo bo‘lishiga olib keladi. Mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishda va oqova suvni tozalash jarayonlarida hosil bo‘ladigan azot oksidi ( $\text{N}_2\text{O}$ ), shuningdek, konditsionerlar, sovutkichlar tayyorlashda ishlatiladigan freon deb ataladigan modda va uglerod hosil bo‘lishiga olib keladigan boshqa ko‘plab texnologiyalar iqlim o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Butun dunyoda bunday texnologiyalardan foydalanishni man qilish yoki ularni kamaytirish ustida tadqiqotlar qilinmoqda.

Daraxtlar karbonat angidrid gazining asosiy yutuvchilardir. Daraxtlarning noo‘rin kesilishi karbonat angidridning havo tarkibidagi konsentratsiyasi oshishiga hamda biologik xilma-xillik kamayib ketishiga sabab bo‘lishi ilmiy tasdig‘ini topgan.

Intensiv qishloq xo‘jaligida tuproqni chuqur haydash havoqa uglerod ajralib chiqishini tezlatadi, azotli mineral o‘g‘itlardan noo‘rin foydalanish esa azot oksidi gazi ( $\text{N}_2\text{O}$ ) ajralib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Shaharlar sanoat ishlab chiqarishning turi va hajmiga qarab katta yoki kichik “issiqlik orollarini” hosil qiladi. Demak, shaharlar uni o‘rab turgan tashqi maydonga nisbatan issiqroq bo‘ladi. Ayniqsa, sement, metall erituvchi zavodlar, alyuminiy zavodlari karbonat angidrid gazini ko‘p chiqaradi.

Yong‘inlar atmosferaga katta miqdorda uglerod chiqishiga sabab bo‘ladi. Qayta-qayta sodir bo‘ladigan yang‘inlar (o‘rmonlar yonishi)

tuproqni ishdan chiqaradi va o‘rmonni qayta tiklashga xalaqit qiladi. Garchi antropogen sabablar asosiy bo‘lsa-da, quyosh faolligi o‘zgarishi, vulqon otilishi, yer orbitasi tebranishi kabi tabiiy omillar ham iqlim o‘zgarishiga hissa qo‘shishi haqida fikrlar bor.

Mana shulardan kelib chiqqan holda, iqlim o‘zgarishini bir oz bo‘lsa-da, yumshatish maqsadida ilmiy asoslangan quyidagi takliflarni keltirish mumkin.

Eng avvalo, “yashil” energetikaga o‘tish. Bunda quyosh va shamol energiyasi, geotermal



va bioenergiyadan foydalanish doirasini kengaytirish, yangi avlod energotarmoqlari va akkumulyatsiya qiluvchi tizimlar (batariyalarni, vodorod)dan foydalanish zarur. Energiyatejamkor va samaradorlik oshiruvchi tizimlar — binolarni istitishda yorug‘lik diodlari, energiyatejamkor texnika, energiyani boshqarishda “aqlli” yechimlar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Ijtimoiy transportlarda batariyalarni, vodorodli energiya manbalariga o‘tish, shaharlarda yavoy yurish va velosiped infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida kimyoviy o‘g‘itlar iste‘molini pasaytirish xususiyatiga ega bo‘lgan biopreparatlardan foydalanish, tuproqqa kam miqdorda ishlav berish, agroo‘rmonchilikni kengaytirish, ekotizimlarni asrash va qayta tiklash, uglerodni ushlab qolish va saqlash bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish taklif qilingan.

Shuningdek, quyosh nurlaridan foydalanib karbonat angidrid gazini kamaytirish, atmosferadan maxsus qurilmalar yordamida karbonat angidridni ushlab qolish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Iqlim o‘zgarishi global muammo bo‘lgani sababli bu sohada qator xalqaro siyosiy chora-tadbirlar qabul qilingan. Masalan, 2015-yilda Parij kelishuvi qabul qilingan va unga asosan isish darajasini 1-yilda kamida 1,5-2 °C pasaytirish ko‘zda tutilgan. Uglerod solig‘i va emissiya savdosi tizimini joriy etish, rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish bo‘yicha iqlimni moliyalashtirish yuzasidan takliflar mavjud. Dunyoda ta‘lim, innovatsiyalar va jamiyatning qat‘i-avrorini kuzatib borish bo‘yicha qator tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda. Ekologik turmush tarzini ommalashtirish, iqlim sohasida ilm va innovatsiyalarni rivojlantirish, “yashil” startaplarni va shu sohada biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hujjatlar rasmiylashtirilgan.

— **Mikrobiologiya fani oldida turgan vazifalar nimalardan iborat?**

— Mikrobiologiya inson salomatligi, sayyoramiz ekologiyasi, barqaror qishloq xo‘jaligi, istiqbolli biotexnologiyalar uchun javob beradigan fan. Bugungi kunda bu fan ko‘p bosqichli global vazifalarning yechimini topish yo‘lida xizmat qiladi.

Xo‘sh, global vazifalar nimalardan iborat?

Birinchidan, antibiotiklardan ommaviy va nazoratsiz foydalanish barcha antibiotiklarga barqaror bo‘lgan superbakteriyalar paydo bo‘lishiga olib keldi. Shunday bir paytda mikrobiologiyaning vazifasi yangi sinf antibiotiklarini qidirish, davolashning muqobil metodi, rezistentlikni (chidamlilikni) kuzatib borish orqali global ma‘lumotlar bazalarini yaratishdir.

Global muammolardan yana biri — yuqumli kasalliklar va epidemiyalar. 2020-2022-yillarda sodir bo‘lgan COVID-19 pandemiyasi insoniyat yangi patogenlar oldida ancha nozik ekanini butun dunyoga namoyon qildi. Bunday vaqtda mikrobiologiyaning vazifasi erta diagnostika va yangi viruslarni sekvenslash, vaksinalar va viruslarga qarshi vositalar yaratish, zoonoz tahdidlarni bashorat qilish va kasal yuqtiruvchilarni oldindan aytib bilishdan iborat bo‘ladi.

Mikrobiologiya fanining oldida turgan vazifalardan yana biri — atrof-muhitga munosabat. Muammo shundaki, butun dunyoda tuproq, suv va havo ifloslanib bormoqda. Bir so‘z bilan aytganda, ekotizim degradatsiyasi sodir bo‘lmoqda. Shunday sharoitda bioremediatsiya — tuproqni, suvni neftdan, og‘ir metallardan va boshqa ko‘plab ifloslantiruvchi va parchalovchi moddalardan tozalash imkoniyatiga ega bo‘lgan mikrob biotexnologiyalarini yaratish zarurati yuzaga kelmogda.

Yana bir global muammo — oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo‘jaligi. Sayyoramizda aholi soni oshib borishi va tuproq umumdorligi pasayib borishi sharoitida mikrobiologiyaning roli yanada yuksalib boradi. Masalan, bakteriya va zamburug‘larning maxsus shtammlari asosida tuproq umumdorligi, hosildorlik va o‘simliklarning stress (cho‘llanish, tuz, kasalliklar) sharoitida chidamliligini oshiruvchi mikrob preparatlari, chorva mollarianing antibiotiklarga talabini qondira oladigan, mineral o‘g‘itlarga muqobil bo‘lgan, azotfiksatsiya qiluvchi preparatlar yaratish mikrobiologiya fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Zamonaviy mikrobiologiyaning oldida turgan yana bir muammo zamonaviy biotexnologik jarayonlar hamda sintetik biologiyani rivojlantirishda mikroorganizmlardan foydalanish

bilan bog‘liq. Biz yashab turgan dunyoda mustahkam biomateriallar, bioyoqilg‘ilar va yangi kimyoviy birikmalarga talab kundan kunga oshib bormoqda. Vitaminlar, aminokislotalar, dorivor moddalar, sintez qilish xususiyatiga ega sanoat shtammlari, xususiyatlari oldindan belgilangan mikroblar yaratishda gen muhandisligi va CRISPR metodlaridan foydalanish, plastikalarni biologik parchalovchi va vodorod sintez qiluvchi mikrob konsorsiumlarini yaratish orqali muammolarga yechim topish mumkin.

Keyingi yillarda inson mikrobiomini o‘rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Masala shundaki, odam yoki hayvon ichagidagi mikrobiota tarkibi o‘zgarishi yoki buzilishi, bir tomondan, ichkada kasalliklar hosil qilishi, ikkinchi tomondan, immuni va asab tizimi buzilishiga olib kelishi ma‘lum bo‘ldi. Bunday vaziyatda mikrobiologiyaning oldida mikrobiom (mikroorganizmlar to‘plami) va uning odam va hayvon organlari bilan funksional aloqasini o‘rganish, davolash uchun shaxsiylashtirilgan probiotiklar yaratishdek katta vazifalar turibdi. Shuningdek, inson bilan hamkorlikda (sinergetik) yashovchi mikroorganizmlarning inson miyasiga ta‘sirini o‘rganish kabi ko‘plab zamonaviy muammolar borki, mikrobiologiyasiz ularning yechimini topish murakkab bo‘lib qolaveradi.

Bugungi kunda mikrobiologiya barqaror rivojlanishning asosiy vositasi sifatida bir necha muammolar yechimini topishda katta rol o‘ynamoqda. Bular — inson va hayvon salomatligini muhofaza qilish, oziq-ovqat va biologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiatni qayta tiklash, barqaror ishlab chiqarishni ta‘minlash. Ilmiy, innovatsion yondashuvlar asosida ushbu masalalarga munosib yechim topish mumkin.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri  
Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.**



**Husniddin NORQULOV,**  
**Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi,**  
**pedagogika fanlari nomzodi, dotsent**

Бошланиши 1-бетда

Ko‘z-ko‘z uchun qilingan dabdaba emas, balki samimiy duolar va yaqinlarning rizoligi oilaga baraka olib keladi. Ko‘plab oilalarning to‘yni mahallada, o‘z uyida, 50-100 kishilik davrada o‘tkazayotgani ularning hayotga aql bilan yondashayotganidan va farzandlarining baxti uchun mustahkam poydevor yaratishga intilayotganidan dalolat beradi.

Biroq hozirgi kunda ko‘p oilalar soxta obro‘ olish ilinjida dron, klip, xonanda, brend liboslar kabi ortiqcha sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘ymoqda. Natijada har uchta oiladan biri qarzga botib, yana boshqalari esa migratsiyaga ketishga majbur bo‘lmoqda. Ayrimlar uyini sotib, ijarada yashashga, hatto bankdan 36 oygacha kredit olib to‘y qilish holatlari odat tusiga kirgan. Bularning barchasi yangi qurilgan oilaga og‘ir yuk.

2022-2024-yillardagi kuzatuvlarga ko‘ra, to‘ylarga o‘rtacha 70-150 million so‘m, ayrim hollarda esa 200-300 million so‘mgacha mablag‘ sarflanyapti. Asosiy xarajatlar to‘yxona ijarasi, oziq-ovqat, san’atkorlar xizmati, kelin jihozi, foto-video, sovg‘a-salom va bezatish ishlaridan iborat.

2022-2024-yillardagi kuzatuvlarga ko‘ra, to‘ylarga o‘rtacha 70-150 million so‘m, ayrim hollarda esa 200-300 million so‘mgacha mablag‘ sarflanyapti. Asosiy xarajatlar to‘yxona ijarasi, oziq-ovqat, san’atkorlar xizmati, kelin jihozi, foto-video, sovg‘a-salom va bezatish ishlaridan iborat. Masalan, taomnomaning o‘ziga 30-70 million so‘m, kelinning tayyorgarligiga esa 10-25 million so‘m sarflanmoqda. Bu esa daromad va xarajat o‘rtasida katta tafovutni yuzaga keltirmoqda. Chunki aholining o‘rtacha yillik daromadi 40-50 million so‘mni tashkil etsa-yu, to‘y uchun 100-150 million so‘m sarflanishi ko‘pchilikni

qarzga botiradi. Oqibatda oila to‘ydan keyingi 2-3 yil davomida moliyaviy qiyinchiliklardan chiqa olmaydi.

Xalqaro tashkilotlar (masalan, UNDP yoki World Bank) tadqiqotlarining tahliliga ko‘ra, to‘y va ma‘raka xarajatlari yuqori bo‘lgan oilalarda bolalar ta‘limiga yo‘naltirilgan sarmoya 20-30 foizga kamaygan, tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi pasaygan, ijarada yashovchi oilalar soni ko‘paygan va kambag‘allik xavfi keskin oshgan.

Sir emas, migratsiyadan kelayotgan mablag‘larning noto‘g‘ri sarflanishi O‘zbekistonda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammoga aylanmoqda. 2023-yilda yurtimizga yuborilgan 17,1 milliard dollarlik mablag‘ning 70-80 foizi to‘y, xatna, kelin jihozi va boshqa ma‘rakalarga sarflangani buning yaqqol dalilidir. Bu mablag‘lar biznes, fermerlik yoki ta‘limga emas, asosan qisqa muddatli “obro” uchun ishlatilmoqda. Ayniqsa, Toshkent, Samarqand va Andijon



maqsadida buni go‘yo majburiyat sifatida qabul qilyapti. To‘yda mehmonlar soni ham 300-600 nafarni tashkil qilib, “katta to‘y” degan ijtimoiy baholash mezonini yuzaga keladi. Misol uchun, Farg‘onada kelin jihozining qimmatbaho bo‘lishi mahallada “yangi standart” sifatida qabul qilingan. Andijonda esa 500 nafar mehmon ishtirokidagi to‘y ikki kun davomida o‘tkazilib, 40 million so‘mdan ortiq mablag‘ shou-xizmatlarga sarflangan. Bunday holatlar boshqalarni ham shunga o‘xshash to‘y o‘tkazishga undamoqda. Qisqasi, migrantlar yuborgan pullar investitsiya va ta‘limga emas, balki ijtimoiy “obro” uchun qilinadigan xavfli xarajatlarga yo‘naltirilmoqda.

Hakim Termiziy aytganidek, “Haqiqiy boylik — qalb boyligidir”. Aslida, xalqimiz azaldan to‘y va marosimlarni oddiylik, samimiyat va o‘zaro hurmat ruhida o‘tkazib kelgan. Quvonarlisi, hozirgi kunda ko‘pchilik oddiy, kamxarj va mazmunli to‘ylar tomon yuz barmoqda. Chunki bunday to‘ylar nafaqat iqtisodiy jihatdan yengil, balki ruhiy va ma‘naviy jihatdan ham qadrlidir.

“Haqiqiy boylik — qalb boyligidir”. Aslida, xalqimiz azaldan to‘y va marosimlarni oddiylik, samimiyat va o‘zaro hurmat ruhida o‘tkazib kelgan.

Bu marosimlarda hashamat emas, balki samimiyat, ibrat va o‘zaro hurmat ustuvor bo‘ladi.

To‘ylarni ixcham va kamxarj o‘tkazish faqat moddiy tejamkorlik emas, balki ma‘naviy barkamollik, milliy qadriyatlarga sadoqat va ijtimoiy mas‘uliyat ifodasidir. Bunday to‘ylarda samimiyat, ehtirom va oilaviy muhit ustuvor bo‘ladi. Ortiqcha isrofdan voz kechish inson ongi va madaniyati yuksalayotganini ko‘rsatadi.

Quvontiradigan jihatlar ham yo‘q emas. So‘nggi yillarda “yashil to‘y”, “aqlli to‘y”, “budgettop to‘y” kabi yangicha formatlar asta-sekin ommalashmoqda. Masalan, Toshkentda 2023-yilda o‘tkazilgan 48 mingta to‘yning taxminan 19 mingtasida 100 nafardan kam mehmon qatnashgan. Samarqand va Namanganda ham shunday ixcham to‘ylar soni ortib bormoqda. Tadqiqotchilarning

ta‘kidlashicha, katta to‘yga o‘rtacha 120-150 million so‘m sarflansa, oddiy to‘ylarda bu mablag‘ 30-50 million so‘mgacha kamayadi.

“Yashil to‘y”larda esa elektron taklifnomalar, ijaraga olingan liboslar, ortiqcha bezaklarsiz marosimlar ommalashmoqda.

2024-yilda Navoiy viloyatida 50 ga yaqin yosh oila “aqlli to‘y” formatida tadbir o‘tkazib, shou-dastur va brend kiyimlardan voz kechish orqali 20-30 million so‘m tejagan. “Ijtimoiy fikr” markazining so‘rov natijalariga ko‘ra, yoshlarning 62 foizi dabdabadan ko‘ra mazmunli to‘ylarni afzal ko‘radi. Aholining yarmidan ko‘p qismi esa samimiy va ixcham to‘y — barqaror oilaning garovi deb hisoblaydi. Internetda ham “#budgetto‘y” va “#aqllito‘y” xeshteglari ostida ko‘plab ibratli misollar tarqalmoqda. Bularning barchasi xalqimiz o‘rtasida oddiy, ma‘naviy to‘ylar haqiqiy qadriyat sifatida asta-sekin qayta qadrlanayotganidan dalolat beradi.

Ixcham va kamxarj to‘y o‘tkazishda bir qator muhim omillarga amal qilish lozim. Avvalo, mehmonlar sonini cheklash maqsadga muvofiq. Bu, asosan, yaqin oila a‘zolari va samimiy do‘stlar bilan to‘yni o‘tkazishga, ularga yetarlicha e‘tibor qaratishga va munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Shuningdek, to‘y joyini tanlashda ham ehtiyotkorlik zarur. Qulay, ammo kichik va byudjetga mos joy tanlansa, to‘yning nafaqat kamxarj, balki samimiy muhitda o‘tishi ta‘minlanadi. Tashkiliy ishlarni soddalashtirish — ortiqcha bezaklar, qimmat dasturxon va katta shou-dasturlardan voz kechishni talab etadi. Bunda milliy an‘analar va oilaviy qadriyatlarga tayanish muhim.

Musiqiy dastur borasida ham tanlov kamxarj, mazmunli va milliy ruhda amalga oshirilishi kerak. Qimmat shou va orkestrlar o‘miga diltortar kuy-qo‘shiqlar to‘yning ruhiyatini yanada boyitadi. Shu bilan birga, isrofgarchilikdan saqlanish, ya‘ni oziq-ovqat, sovg‘alar va xizmatlarda me‘yor tamoyiliga amal qilish to‘yni tejamkor va mazmunli qiladi.

Barcha xarajatlarni oldindan rejalashtirib olish muhim. Bu nafaqat sarf-xarajatlarni nazorat qilishga yordam beradi, balki ortiqcha qarz va moliyaviy qiyinchiliklarning oldini oladi.

Eng muhimi, to‘yning ma‘naviy maqsadini unutmaslik zarur. Oila qurish muhabbat, ishonch va mas‘uliyatga asoslanadi. Shu bois, to‘y marosimi an‘analarga mos tarzda, ruhan boy va samimiy muhitda o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.

Bu borada yurtdoshlarimizning fikrlari ham e‘tiborga molik. Ishtixon tumanidagi “Zarband” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Uchqun Jumanov bu masalada shunday deydi: “Avvallari ‘el oldida to‘y qilish’ 500 kishi chaqirish, 2-3 kunlik bazm, artist, video, olti-yetti xil ovqat degani edi. Endi esa aholi o‘rtasida ma‘naviy tushunchalar shakllanib bormoqda. Hatto qudalarning o‘zlari ham: “Kamxarj, ammo samimiy to‘y qilsak bo‘lmasmiz?” deb kelishmoqda. Qarzsiz, xotirjam to‘y yangi hayotning barakali boshlanishiga zamin yaratmoqda”.

Mahallalardagi faol ayollar, otinoyilar va nuronoyilar ham jarayonda faol ishtirok etayotir. Ular turli targ‘ibot tadbirlari, uchrashuvlar orqali yoshlarni, ayniqsa, yangi turmushga qadam qo‘yayotgan yigit-qizlarni soddalik va kamtarlikka da‘vat qilaypti.

Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahridagi Turkiston mahallasida istiqomat qiluvchi Mahfuza aya ham shunday fikr bildiradi: “To‘yning dabdabali bo‘lishi baxtli turmush kafolati emas. Biz qudalarni uchrashtirib, o‘zaro tushunish va oqilona yondashuvga chaqiryapmiz. Qarz olib to‘y qilganlar keyin hayotda qiynaladi. Sodda to‘ylar esa aksariyat holda samimiy muhitda o‘tadi”.

Xulosa qilib aytganda, to‘ylarni ixcham va kamxarj o‘tkazish faqat moddiy tejamkorlik emas, balki ma‘naviy barkamollik, milliy qadriyatlarga sadoqat va ijtimoiy mas‘uliyat ifodasidir. Bunday to‘ylarda samimiyat, ehtirom va oilaviy muhit ustuvor bo‘ladi. Ortiqcha isrofdan voz kechish inson ongi va madaniyati yuksalayotganini ko‘rsatadi.

# GARUNNI HAYRATGA SOLGAN VOQEA

## Bir o‘lkaki...

— Demak, bugun ketar ekansan-da? — deya o‘ksinadi Garun.  
— Ha. Xudo xohlasa, kechqurun Toshkentga uchaman.  
— Hozir yurtingda nima qilasan? Hech bo‘lmasa, avgustni o‘tkazib ket. O‘zing aytapsan-ku, u yer haddan ziyod issiq deb. Oh, qara, tog‘larni ko‘r, salqin, hurillagan shamol, yomg‘ir... Havoning tozaligi-chi! Miriqib yuribsan-ku.  
— Gaping to‘g‘ri. Bu yer juda salqin va chiroyli. Yomg‘irni yaxshi ko‘raman, bu yerda esa kunora yomg‘ir yog‘adi. Tog‘ degani cheksiz va salobatli... Lekin yurtimni, qishlog‘imni sog‘indim. O‘z yurting — o‘lan to‘shaging deyishadi-ku.

— Seni o‘zim tug‘ilib-o‘sgan qishloq ko‘rmabsan, bu dunyoga kelmabsan, og‘ayni. Sen Kavkazni ko‘rdim deb yuribsan-da. Avval Kurushni ko‘r! U — Dog‘istonning cho‘qqisi. Kurush nafaqat Rossiya, balki Yevropadagi eng baland joyda, tog‘ning tomida joylashgan qishloq. Tasavvur qil, dengiz sathidan 2560 metr yuksaklikda-ya! Bulutlar boshimizni silab o‘tadi.

Garun o‘zi tug‘ilib-o‘sgan qishloqni bor mehri bilan tasvirlardi. Uning so‘zlariga ko‘ra, qishloqdoshlari mehmondo‘st, mard, saxiy bo‘lib, go‘yo bu dunyodagi barcha ezgu insoniy fazilatlar avval o‘sha tog‘liklarga berilgan boshqalar odamiylikning ortganini olgandek edi.

— Menga qara, Garun, sen bularni aytmasang ham his qilib turibman. Sendagi adamiylik, mehr-og‘ibat, do‘stga sodiqlik, saxiylik va tantilikka gap yo‘q. Ishonchim

komil, ovuldoshlaring ham senga o‘xshaydi yoki sen ularga o‘xshaysan...

Garun minnatdorlik bilan yelkamga qo‘l tashlab, o‘rmidan turdi va meni bag‘riga bosdi. Biz Garun bilan ikki yil oldin sanatoriyada tanishgandik. U adabiyotni sevadi, ko‘p o‘qiydi, ijodkorlarga mehri bo‘lakcha. Biroq o‘zi boshqa sohasizgandek odami — quruvchi. O‘tgan yili Kavkazning odanimizni eshitib, Dog‘istonga taklif qildi. Bordik. Rafiqasi bilan ayolim ikkimizni kutib oldi. Maxachqal‘aning eng go‘zal joylarini tomosha qildik. Rasul Hamzatovning uy-muzei, “O‘zbek shahar” (1972-yilgi zilziladan so‘ng o‘zbek quruvchilari barpo etgan shaharcha)ni ko‘rdik. Sohilda bo‘ldik. Rasul Hamzatovning salobatli haykali oldidagi teatr binosiga boqib, “Mening ham asarim shu yerlarda sahnalashtirilsa, qaniydi!” deb niyat qilgandim.

Xudoga shukr, bu yil aynan Dog‘istondagi katta teatrda yangi asarimning premyerasi



bo‘ldi. Iyunning o‘n to‘qqizinci kuni Garun meni Maxachqal‘a aeroportida kutib oldi. Xursandligini ko‘rsangiz, go‘yo o‘zining asari namoyish etilayotgandek edi.

Premiyeradan so‘ng xayrlashib, dam olgani Kislovodskka yo‘l oldim. Bir yarim oydan beri shu yerdaman. Garun bugun uchib ketishimni bilib, xayrlashgani olti yuz chaqirim yo‘l bosib kelibdi. Mana, ikkimiz tog‘ tepasida suhbatlashib o‘tiribmiz.

— O‘zim senga Maxachqal‘adan aviachipta olib beraman. Hech bo‘lmasa, bir hafta mehmon bo‘lib ket.

— Ochig‘i, men ham qishlog‘imni juda sog‘indim. Bilasanmi, bir yarim oy bo‘ldi... Xafa bo‘lmasang aytay, shirin-shakar meva-chevani, uzumu qovun-tarvuzni sog‘indim.

To‘g‘ri, sening yurtingga Yaratgan salqin va toza havo, bepoyon o‘rmonu yuksak tog‘larni, yomg‘irlarni hadya etgan. Lekin mening yurtim oftobi haroratini tufayli tog‘u toshlaridan ham asbi tomati. Qovunlariga og‘iz tekkizsang, lablaring bir-biriga yopishib qoladi. Uzumi esa charsillab bol otadi. Tarvuzlarini chertsang, tarsillab yorilib ketadi. Qip-qizil, yoqutday tovlangan bir bo‘lak tarvuzni og‘zingga solsang, jannat ne‘matlaridan tatigandek bo‘lasan. Issiq deysan... Mayli, mening xalqim oftobni opichlab, qo‘yniga solib yurishga o‘rganib ketgan. Men shularni sog‘indim-da, oshna. Haqiqiy o‘rik, shaftoli, gilos va nokni ko‘rging kelsa, sen biz tomonlarga bor...

Garun samimiy jilmayadi.

— Chindan, qishlog‘ingda ish qizg‘in ekan.

— Bu ko‘chaning boshida mening uyim. “Do‘stlik” ko‘chasi...

— Ochig‘i, qoyil qoldim. Qishlog‘ingning obod bo‘lishi uchun davlat e‘tibor qaratasa, mablag‘ ajratasa, bu ishni yuqori turuvchi mas‘ullar shaxsan nazoratga olsa... Bu juda yaxshi-da.

Garun shu so‘zlarni aytarkan, bir oz mahzun tortdi. Ona qishlog‘i joylashgan olis Dog‘iston tog‘lari tomon g‘amgin termilib qoldi.

— Nega jimib qolding, Garun?  
— Bizning Kurushga ham shunday katta rahbarlar borsa... Davlat shunday ulkan loyihalarni amalga oshirsa, qanday yaxshi bo‘lardi! Axir Kurush dunyoning eng baland nuqtasida joylashgan qishloqlardan biri-ku. Axir u Kavkazning faxri-ku...

Garun entikib, xo‘rsindi. U o‘yiga botgan ko‘yi olis-olislardan ko‘z uzmasdi. Xayolidan nelar kechayotgani menga qorong‘i. Lekin ayni dam kindik qoni tomon Kurush haqida o‘ylayotgani, balki uni hozirgina internetda ko‘rgan mening qishlog‘im bilan solishtirayotgani aniq edi.

— Garun, naqit topib biz tomonlarga bor, o‘zim seni Xo‘jaipok ota va So‘fi Olloyor bobo ziyoratgohlariga olib boraman. Hamqishloqlarimning izzatli mehmoni bo‘lib qaytasan.

— Haligi... qovun deding-ku, yesang lablaring yopishib qoladi deding... Tasavvur qilyapman. Xudo xohlasa, keyingi yozda sening yangi va obod qishlog‘ingga, albatta, boraman.

Garun jilmayadi. Biz o‘mimizdan turib, pastga ena boshladik...

Xudo xohlasa, bugun o‘z yurtimga uchaman.

**Qo‘chqor NORQOBIL,**  
**yozuvc**